

FALSAFA VA DUNYOQARASH

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi Saydaxmatova Mahkamtosh

Ilmiy rahbar: f.f.n. J.Jo'rayev

“Haqiqatni anglashga intiluvchilar chin faylasuflardir”

Aflotun(Plotun)

Falsafa barcha fanlardan oziqlanadigan umuminsoniy va universal fan.Uning hayotiyligi xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos ekani, jamiyat manfaatlari va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq.”Falsafa”atamasi qadimgi yunon tilidagi “filosofiya”so’zidan olingan va u lug’aviy ma’noda “donishmandlikni sevish”(“filo”-sevaman,”sofiya”-donolik)degan mazmunni anglatadi. Asrlar davomida “filosofiya”so’zining ma’no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat,inson va fanlar tizimidagi o’rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo’lgan,bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o’zgarib borgan. Qadimgi Yunonistonda “filosofiya” atamasi dastlab matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma’lum bo’lgan,alloma Pifagor ishlatgan.Yevropa madaniyatiga esa u atoqli yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa ,u avvalo qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to’g’rirog’I, “fanlarning otasi”, ya’ni asosiy fanga aylangan.Falsafa SHarq xalqlari ijtimoiy tafakkurida “donishmandlikni sevish”degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish,hayot,insonni qadrlash,umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e’zozlash ma’nosida ishlatilgan.

Birinchi asrda yashab o’tgan buyuk faylasuf Lukretsiyning shogirdlaridan biri unga qarab: “Ustoz fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko’payib ketdi. Endi falsafani o’rganishning hojati bormikan?” debdi.SHunda ulug’ faylasuf bamaylixotir gap boshlab: “Falsafani Suqrot,Aflotun,Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Endilikda ana shunday mutafakkirlar yaratgan fanni o’rganmaslik har qaysi nodonning ham qo’lidan keladigan ish bo’lib qoldi”,-degan ekan.

XVII-XXasr boshlarida Markaziy Osiyodagi hukm surgan ijtimoiy-siyosiy muhit va uning falsafiy tafakkurida aks etishi.M.Bedil va B.Mashrablarning falsafiy qarashlari va ularning Turkiston xalqlari ongida milliy o'zlikni anglashning shakllanishida tutgan o'rni.Ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatlarining paydo bo'lishi.Jadidchilarning ozodlik,mustaqillik uchun kurashi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak o'zini birinchi marta faylasuf deb atagan kishi yunon mutafakkiri va olimi Pifagor.Faylasuflarning qanday ekanliklariga ta'rif berib, u shunday degan: "Hayot o'yinga o'xshaydi:ba'zilar unga musobaqalashgani kelsa,ayrimlar savdolashgani,eng baxtlilari esa tomosha qilgani keladilar;hayotda ham xuddi shunday,ba'zilar qullar kabi shuhrat va boylikka o'ch bo'lib dunyoga keladi,vaholanki faylasuflar-faqat haqiqat uchun keladi".

Demak falsafa kishilarni g'oyaviylik,ilmiy dunyoqarashini qaror toptirishda muhim ro'l o'ynaydi.Falsafada butun jamiyat,inson tafakkurining umumiy jihatlarini idrok etiladi."Falsafa menga o'z-o'zim bilan suhbat qurishni o'rgatdi,-deydi Antisfen".

Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.Bunday dunyoqarash biror-bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas,balki ishontirish,xilma-xil fikrlarni o'rtaqa tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha , tamoyillarini aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri.Falsafa insonni mulohaza yuritish va fikrlashga inson,umri mohiyatidagi, ko'plab muammolarga yechim topishga undaydi. Ana shunday tanqidiy yondashuv falsafaning muhim xususiyatlaridan.

Dunyoqarash bu insonni o'rab turgan dunyo va uning unda tutgan o'rniga nisbatan qarashdir.Har qanday dunyoqarash tarkibiga: bilim, baholash, e'tiqod va aqidalar kiradi. Dunyoqarash tushunchasi.Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalari, hayoti va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi.

Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Dunyoqarash inson dunyoni va o'zini ma'lum ma'noda anglashi, tushunishi, bilishi va baholash usuli bo'lishi jihatdan uning har qanday moddiy va ma'naviy faoliyatida o'z ifodasini topadi.

Hamma zamonlarda ham inson oldida uning atrof muhitga, boshqa odamlarga, o'z-o'ziga nisbatan munosabatini belgilovchi savollar ko'ndalang turadi. Har birimiz unday yoki bunday tarzda ularga duch kelamiz.

“Dunyoqarash” tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'u va tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash ruhiy-ijtimoiy hodisa orqali oydinlashadi.

Dunyoqarash bir davrda shakllanadi. Shu ma'noda dunyoqarash ijtimoiy – tarixiy mohiyatga ega. Dunyoqarash muammosi bu qotib qolgan va unga tegib bo'lmaydigan jarayon emas. U ham davrlar o'zgarishi bilan o'zgarib boradi.

Geraklit fikricha, olamda hamma narsa harakatda. “Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi”. Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir.

Biz doim harakatda bo'lmog'imiz darkor zero bir joyda qotib qolmaslik dunyo bilan peshqadam bo'lmog'imiz kerak. Blez Paskalning shunday fikrlari bor: “Olamdagi barcha narsalar bir- biriga shu darajada chambarchas bog'lanib ketganki, ulardan birini boshqalarisiz va yaxlit holda olmay turib anglab bo'lmaydi”. Falsafa va dunyoqarashni ham bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Falsafani borliq desak dunyoqarash esa o'sha borliqqa qarashdir. Unga bo'lgan fikrimiz qarashimiz.

Umuman, dunyoqarash haqidagi fikrimni yakunlar ekanman, dunyoqarash insonlarda dunyo to'g'risida bir butun umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar, e'tiqodlarining to'planishi. Dunyoqarash ma'lum maqsadlarni ko'zlab, o'z faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa asoslari Q. Nazarov, S. Mamashokirov. Toshkent 2005;
2. Falsafa E. Yusupov. Toshkent 2005;
3. Internet qo'llanmalari;